

## BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI PEDAGOGIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Jumayeva Muxlisa Shokir qizi  
Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-kurs doktoranti

*Annotatsiya. Globallashuv sharoitida shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr davlat, jamiyat va pedagoglar oldiga dolzarbliyi va qamrovi kun sayin ortib borayot gan zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy-pedagogik faoliyatini mazmunli va sifatli tashkil etish, o'quvchilarning bilimini oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy texnologiyalardan, rivojlangan xorijiy davlatlar metodlaridan samarali foydalanishga o'rgatishning zaruriy jihatlari yoritilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, oliv ta'lim muassasalari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishning ahamiyati, umumiy tamoyillar mazmuni ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'qituvchisi, rivojlantirish, bo'lajak pedagog, oliv ta'lim muassasasi, kompetensiya, o'quvchi bilimi, zamonaviy texnologiya, intellekt, ma'naviy salohiyat.*

## ВАЖНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Джумаева Мухлиса Шакир кызы  
докторант Ташкентского Государственного Педагогического Университета

*Аннотация: Сегодня для достижения огромных успехов в системе образования необходимо внести изменения в подход и подход к повышению уровня образования. В статье описаны необходимые аспекты содержательной и качественной организации профессионально-педагогической деятельности при подготовке учителей начальных классов, эффективного использования современных технологий, направленных на повышение уровня знаний учащихся. Необходимо подготовить новое поколение будущих учителей начальных классов с высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, сформировать у выпускников учебных заведений необходимые навыки и знания, чтобы они стали современными профессионалами.*

*Ключевые слова: учитель начальных классов, вуз, компетентность, знания учащихся, современные технологии, интеллект, духовный потенциал.*

## THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE PRIMARY CLASS TEACHER'S PEDAGOGICAL ACTIVITY

Jumayeva Mukhlisa Shakir kizi  
Tashkent State Pedagogical University 1st ear doctoral student

*Annotation: The article describes the necessary aspects of the content and quality organization of professional and pedagogical activities in the preparation of primary school teachers, the effective use of modern technologies aimed at increasing the level of knowledge of students. It is necessary to prepare a new generation of future primary school teachers with high intellectual and spiritual potential, to form the necessary skills and knowledge among graduates of educational institutions so that they become modern professionals.*

*Key words: primary school teacher, university, competence, students' knowledge, modern technologies, intelligence, spiritual potential.*

*Kirish. Inson faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, ishlab chiqarish, madaniyat, san'at yoki ilmiy-pedagogik faoliyat, umuman qanday soha bo'lishidan qat'iy nazar, "ijodiy faoliyat" yuqori baholanadi va rag'batlantiriladi. Chunki u har qanday faoliyat samaradorligining ortishiga olib keladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham o'zgarmaydi" degan so'zları bugungi kunda nihoyatda ahamiyatli. Xo'sh, maktabda o'qitish metodikasi o'zgarishi uchun tizimda qanday islohatlar olib borish lozim? Albatta, bu maqsadga erishish uchun bajariladigan vazifalardan biri o'qituvchi pedagoglarning*

dunyoqarashini tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmalari bilan yanada boyitishdir. Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik jihatdan tayyorlash jarayo-nida bir qator umumiyl metodika va xususiy metodika tamoyillarga amal qilinadi.

Ular quyidagilardan iborat:

Umummetodik tamoyillar:

Ilmiylik tamoyili;

Metodik tayyorgarlikda nazariya va amaliyotning birligi tamoyili;

Ta'lim jarayonida ta'sirlarning uzluksizligi tamoyili;

Insonparvarlik tamoyili;

Ta'lim jarayonida shaxs yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili.

Adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan B.Ganiyev, M.Inomova, V.Karimova, N.Murodova, O.Musurmonova, Q.Muftaydinov, A.Muxsiyeva, N.Nagmetova, D.Raxmatullayeva, F.Xidirova kabilarning ilmiy-tadqiqotlari, monografiya va o'quv qo'llanmalarida o'qituvchilarda shaxsiy va kasbiy sifatlarni, zarurko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatlari yoritib berilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan YE.Arnautova, A.Bartenev, V.Grebneva, A.Karpov, YE.Klimova, I.Kondratenko kabilarning tadqiqotlarida o'qituvchilarni ijtimoiylashuvini ta'minlashning pedagogik mexanizmlari, zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari bayon etilgan.

Xorijlik olimlardan A.Gibb, M.John, R.Kreitner, Keyenan kabilarning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi psixologiyasi, o'quvchilar kichikbilan to'g'ri muloqotni yo'lga qo'ya olish ta'limini tashkil etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Ma'lumki har qanday kasbda faoliyat samaradorligi va muvaffaqiyatli kasb sohiblarining tayyorgarligi, mahorati, o'z qobiliyatlarini takomillashtirish ustida nechog'lik qunt va izchillik bilan ishlashiga bog'liq.O'qituvchilik kasbida esa o'z bilimdonligi, zukkoligi, kasb mahoratini takomillashtirish ustida umr bo'yи muntazam ishlamay turib, el ardoqlagan, obro'-e'tiborli pedagog bo'lish mumkin emas. Bugungi kunda barchamiz uchun eng muhim vazifaga aylanayotgan bir masala borki, biz amalga oshirayotgan barcha islohatlarni aynan shu masalani qanday hal etishimizga bog'liq. U ham bo'lsa, hayotimiz mazmuni, ertangi kunimiz egasi bo'lган yosh avlod, farzandlarimiz tarbiyasidir.Pedagoglarimiz yaxshi biladi, tarbiya, odob-axloq sohasida "amaliy namuna" hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Farzandlarimizga avvalo o'zimiz hamma sohada –Vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishda, ilmga, kasb-u hunarga mehr qo'yishda, ota-onaga, jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy namuna ko'rsatishimiz kerak.Shunday ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini shakllantirish bugungi kun talabi asosida ta'lim oldidagi eng muhim vazifalardan biridir. Bunday murakkab va muhim jaroyonni amalga oshirishda o'qituvchilarni o'rni beqiyosdir va ularning zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. O'qituvchi o'z kasbini sevishi, mohir bilimdoni, muammolarning oqilona echimlarini topa oladigan, o'z ustida timsiz ijodiy ishlab, yangiliklar yarata oladigan, o'quvchilar qalbidan munosib o'rin egallagan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham bugungi kunda o'qituvchining kasbiy kompetentligi masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu muammo barcha rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis tayyorlashning asosiy muammolaridan biriga aylangan. Kompetentli o'qituvchigina'lim samaradorlini ta'minlay olishi, o'quvchilar uchun zarur bo'lган kompetensiyalarni shakllantira olishi, ta'lim jarayonini kompetentlarini shakllantirishga yo'naltira olishi lozim.Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda o'qituvchi oldida u bilishi lozim deb hisoblangan yangilik, bilim ham shu qadar ko'payib ketmoqda mutaxassislар esa bunday vaziyatda to'g'ri echim topishning dunyo hamjamiyati tomonidan sinalgan yo'li-kompetansiyaviy ta'limni amaliyotga tadbiq etish zarur, degan xulosaga kelishdi.Shuningdek mazkur fan bo'yicha ilmiy yangiliklarni o'qituvchilarga doimiy ravishda etkazib borishda internet tarmog'idagi boshlang'ich ta'limga oid kasbiy kompetentligini bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib hamda boyitib borishni amalga oshirish zarur.Bugungi kunda o'qituvchining kasbiy kompetentligi masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu muammo barcha rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis tayyorlashning asosiy muammolaridan biriga aylangan. Kompetentlik inglizcha "competence" so'zidan olingan bo'lib lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka,mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga

xuzmat qiladi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lif sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqatga kirishishi, raqiblar o'zaro munnosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. O'qituvchi o'z vazifasini yaqqolroq anglagan sari o'z o'quvchilariga mustaqillikni, tashabbuskorlik va erkinlikni ko'proq taqdim qiladi. Shuning uchun ham Suqrot mohir pedagoglarga "fikr doyalari" nomini bergan. Tajribali peagog tayyor ma'lumot beribgina qolmasdan, shuningdek o'quvchining miyasida fikr tug'ilishiga yordamlashishi kerak. Demak pedagog mehnatining mohiyati-bu inson shakllanishiga hamroh bo'ladigan barcha jarayonlarni boshqarishdir. Bu vazifani ado etishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari alohida mavqega ega. Zero mакtabga ilk bor qadam qo'ygan bola dunyoning, hayotning qonun-qoidalarini, sir-asrorlarini o'qituvchidan o'rganadi. Agar o'qituvchi bolani chuqur bilimli, e'tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsa, shu fazilatlar o'zida mujassamlangan bo'lmos'i zarur. Kasbning ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, kasbiy kompetentlik, ma'lum jismoniy va ruhiy hislatlar albatta bo'lishi zarurdir. Oliy ta'lif muassalarida pedagogika fanini o'qitishda fanlararo aloqadorlik prensipi asosida o'qitishning ishlab chiqilgan nazariy g'oyalari asosida o'quv jarayonida qo'llashga yo'naltirilgan dars loyihalarni ishlab chiqish. O'qituvchining professional kompetentligi deganda, pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo'lgan kasbiy va shaxsiy sifatlar yig'indisiga aytildi. Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi – bu ijodiy individuallikning rivojlanishi, pedagogik innovatsiyalarga qiziqishning shakllanishi, pedagogik, pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, o'qituvchilarning ta'limirbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan o'qituvchini professional kompetentli o'qituvchi deyish mumkin. bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy qobiliyat jarayoni quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

I-bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo'nalganlik; kasbiy tasavvurlarning shakllanishi; kasbiy bilimlarning o'zlashtirilishi; kasbiy faoliyat talablarining anglanishi

II-bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirish; kasbiy kompetentsiyalarni bilish, o'zlashtirish, muloqotga kirishish, kasbiy ijodkorlik; faoliyatga innovatsion yondashuvning qaror topishi (maxsus fanlar, pedagogik amaliyot, to'garaklar, ijodiy ishlar, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil ta'lif vositasida).

III-bosqich. Kasbiy o'z-o'zini anglash, moslashish; kasbiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi; pedagogik qobiliyat va kasbiy sifatlarning shakllanishi (umumkasbiy va maxsus fanlar, o'quv amaliyoti, mustaqil ta'lif vositasida).

Ta'lif tizimidagi o'zgarishlar o'qituvchining malakasini oshirishni talab etadi. Ya'ni uning kasb-kor darajasini, yoki kasbiy kompetentligini oshirishni talab etadi. Hozirgi jamiyatning asosiy vazifasi – shaxsning faol va perspektivadagi jamiyat va davlatning talablariga javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxsni tayyorlash, jamiyatning sotsial adaptatsiyaga mos qobiliyatga ega kasbiy faoliyatni boshlashga tayyor, o'z-o'zini bilimini, malakasini oshirishga qobiliyatli kadrlarni tayyorlash. Mustaqil fikrlaydigan, faoliyatining natijasini prognozlay biladigan, ma'lumot jarayonini modellashtira oladigan pedagoggina oldiga qo'yilgan maqsadini amalga oshira oladi. Shuning uchun ham hozirgi davrda mustaqil, ijodiy fikrlaydigan, raqobatbardosh, hozirgi tinimsiz rivojlanib borayotgan talablarga javob beradigan shaxsni tarbiyalaydigan o'qituvchiga talab oshmoqda. Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda pedagogning professional kompetentligini rivojlantirishning asosiy yo'llarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Metodik birlashmalar, ijodiy guruhlarda ishslash;
2. Tadqiqotchilik, eksperimental faoliyat;
3. Innovatsion faoliyat, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish;
4. Pedagogik qo'llab – quvvatlashning har xil shakllari;
5. Har xil konkurslarda faol qatnashish: "Yil o'qituvchisi", festivallar, konkurslar va b.
6. O'zining pedagogik tajribasini umumlashtirish;
7. AKT dan faol foydalanish.

Agar pedagog o'zining shaxsiy kasbiy kompetentligini oshirish zarurligini tushunib etmasa yuqoridagi ko'rsatilgan vositalarning birortasi ham samara bermaydi. Shuning uchun ham pedagogik yuksalish motivi va uning amalga oshirilishi uchun mos sharoit yaratilishi zaruriyati kelib chiqadi.

O'z kasbi doirasida yuqori darajada bilimga ega bo'lish, kasbga sadoqat, halol va vijdonan

mehnat qilish, kasbiy qiyinchiliklarni engishda sabr va iroda, kasbiy burch va mas'uliyatini anglash, tashabbuskorlik kabi umuminsoniy va milliy-axloqiy tushunchalar pedagogik faoliyat, ta'limgartarbiya ishlari bilan birgalikda talqin etiladi va u pedagogning kasbiy e'tiqodini belgilaydi. Shuning uchun ham bo'lajak pedagoglar kasbiy e'tiqodga doir fazilatlarni egallab olishlari zarur. Chunki, kasbiy e'tiqodga doir fazilatlarni egallahash: talabalarda kasbga doir bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga; kelajakda o'zi tanlagan kasbidan g'ururlanishiga, jamiyat taraqqiyoti uchun vijdonan xizmat qilishga, ta'limgartarbiya qonuniyatlariga so'zsiz amal qilishga hamda talabalarda so'z va amal birligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Zamonaviy ta'limgartimi modernizatsiya bosqichida. Ushbu sharoitda boshlang'ich ta'limgartoglarining o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirishning muhim usullaridan biri uni yangi didaktik ma'lumotlar bilan ishlay olishi, chet el ta'limgartimi tizimlari metodlaridan foydalana olish ko'nikmasini takomillashtirishdir. Bizning jamiyatimizni ertaga qanday bo'lishi bu bugungi maktab o'qituvchilari o'z o'quvchilarini zamonaviy va kerakli bilimlarni egallagan, o'z yurti uchun har tomonlama, kerakli shaxs qilib voyaga etkizishiga bog'liq.

#### Adabiyotlar:

1. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Toshkent, «Sano-standart». 2015. – 120. -4 bet. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.
2. Oripova Nodima Khalilovna, Mirzaeva Manzura Axmatjanovna, Nazyrov Usmon Kosimovich, Keldiyarova Vazira Botirovna. MAIN CORE AND MEANING OF SHAPING PROFESSIONAL FAITH. 242-245. doi:10.31838/jcr.07.02.43
3. Norboshhyeva M.O. Bolalar psixologiyasi. - T.; 2002.
4. G'oziev E.G. Psixologiya. -Toshkent: O'zMU, 2002.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: O'qituvchi, 1992.-160 b.
6. Hasanboyeva O. vaboshq. Pedagogika tarixi. - T.: G'ulom, 2004. 312-b
7. To'xtaxo'jayeva. Pedagogika. Toshkent-2005.
8. Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" o'quv metodik qo'llanma. T.: 2004. 118 b.
9. www. ziyonet.uz
10. www.pedagog.uz